Samatov Javlonbek Abdukayumovich	
Futbol o'yinlari orqali o'quvchilarda jismoniy tarbiya pedagogikasining ahamiyati	762
Sattarov Qarshiboy Norqulovich	
Kichik maktab yoshidagi bolalarda lingvistik kreativ intellektni shakllantirishning pedagogik shartlari	765
Shodiyev Rizamat Davronovich, Jabborova Maftuna Komil qizi	
Ota-onalar bilan samarali hamkorlikni tashkil etishda direktorning strategik yondashuvi.....	770
Tog'ayeva Shahnoza Shavkatovna	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa tinglash	774
Xodjayeva Nilufar Latipovna	
Talabalarda kitobxonlik madaniyatini targ'ib qilish orqali sog'lom fikrlarni shakllantirish masalasi.....	778
Xudayberganova Nargisa Qurbonbayevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkurini rivojlantirishda interfaol metodlarning ahamiyati	782
Kursanova Marjona Baxtiyor qizi	
Sun'iy intellekt – bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilari ta'limini modernizatsiya qilish vositasi sifatida	785
Yoqubaliyeva Dilafruz Payzidin qizi	
Tibbiy pedagogika: kasbiy ta'limda sog'lom turmush tarzi shakllantirishning psixopedagogik asoslari.....	788
Ziyatov Muhammad Namazovich	
Интерактивное обучение в развитии личности и критического мышления студентов	792
Рысова Галия Байбулатовна	

Значение искусственного интеллекта в области педагогики на основе мультимедийных приложений	795
Begaliyev Fayzali Umaraliyevich	
Favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan tibbiy profilaktik ishlar	798
Mahmudov Otamurod Hoshimovich	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida haykaltaroshlik san'ati bilan korruptsiyaga qarshi boshqaruv mexanizmlarini shakllantirish	802
Toshpulatova Fotima Saydullayevna	
Tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish usullari	805
Abdulvohidov Turg'unali Abduqaxxor o'g'li	
Zamonaviy pedagogik jarayonlarda uzluksiz kasbiy rivojlanish va uning o'quvchilarning natijalariga ta'siri	808
Ahadova Mushtariybonu Akmal qizi	
Tibbiyot ta'limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari	811
Amonova Madina Furkatovna	
Matematika fanini o'qitishda fanlararo integratsiya.....	814
Arabbayeva Zamiraxon Tadjibayevna	
PISA 2025 tadqiqotlariga doir tajriba sinov ishlari (O'zbekiston misolida).....	817
Doniyorov Muxiddin Normamatovich	
Maktabgacha ta'limning rivojlanish markazlarida ta'lim-tarbiya jarayonida o'yinlardan foydalanish va tahlil qilish.....	820
Eshmuratova Gauhar Maxsudovna	
Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish	824
Matjanova Gulzada Annabayevna	
Al-Xorazmiy asarlari vositasida talabalarda analitik fikrlashni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	828
Qaxxorova Shaxnoza Abduvasit qizi	
Xalq og'zaki ijodi vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida mehnat tarbiyasini shakllantirish	832
Rahmonova Zamiraxon Yakubovna	
Jonli tabiat burchagini tashkil etish metodikasi.....	835
Yaylovboyeva Maftuna Lochinbek qizi	
Maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarda raqamli intellekt (DQ) va divergent fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish.....	838
Yusupova Xabiba Iriskulovna, Nazarmatova Dilshoda Umarali qizi, Xusanova Dilraboqxon Botiraliyevna	
Integratsiyalashgan ta'lim jarayonida yaratiladigan metodikalar va loyiha ishlari.....	843
Ergasheva Mahbuba	
Инновационные педагогические подходы в системе образования и их эффективность	846
Уринбаев Исроилжон Кадиrhoнович	
Pedagogik faoliyatda kasbiy stress va uni keltirib chiqaruvchi omillar.....	851
Boymirzayeva Nafisaxon Baxodir qizi	
Talabalarda milliy tarbiya va axloqiy immunitet tushunchalarini rivojlantirishning milliy-tarixiy kontekstual jihatlari	855
Rasulov Baxtiyor Maxmudjonovich, Abdullayeva Arofatxon Abduvaxobovna	
TRIZ texnologiyasi – uchinchi renessans poydevori	860
Yusupova Gulshiraxon Zinatdinovna	
Yoshlar mafkurasini shakllantirishda hozirgi zamon ijtimoiy tarmoq va raqamli platformalarning o'rni.....	865
Xonimov Sharofiddin Bahodirovich	
O'zbek tilini o'qitishda raqamli ta'lim resurslarining o'rni va xususiyatlari.....	870
Ashurbayeva Rukiya Kaxxarovna	
Xiva xonligining tashqi savdo aloqalari tarixidan	874
Abduraimova Charos Nodir qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarini boshqaruv madaniyatini shakllantirish omillari.....	878
Abduraxmonova Xurshida G'ofurovna	
Gandbol sport turini umumiy o'rta ta'lim maktablarida rivojlantirish.....	881
Ahmadjonov Dilmurod Davronjon o'g'li, Abduraxmonov Saydillo Xakimovich	
PIRLS xalqaro tadqiqotida matn, topshiriqlar va baholash mezonlari	884
Amonova Aziza Saydulloyevna	



Tibbiyot ta'limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari	888
Amonova Madina Furkatovna	
Morfonologiya va uni umumiy ta'lim tizimida o'qitish	891
Asatullayeva Dilnavoz Jondullayevna	
Biologiya darslarida lokal darajadagi texnologiyalardan foydalanish metodikasi	894
Azimov Ibragimjon Toshpo'latovich, Mirzaboev Timur Bisenboy o'g'li, Toshpo'latova Nigina Ibrohimjon qizi	
Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining shakllari va umumiy tuzilishi	898
B. R. Xudoyberdiyev	
Cognitive Justification of Humor in Modern Linguistics	901
Bektoshev Mubashirkhon Odilbek Ugli	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirish	905
Botirova Lobar Kamolovna	
Toshkent viloyatida rekreasion faoliyat rivojlanishining asosiy muammolari	910
Djurayeva Lobar Vaxitovna	
Didactic Features of Using E-Portfolios in Continuing Professional Development of Teachers	915
Erkaboyeva Saodathon	
O'quvchilar xulqida yuzaga keladigan salbiy o'zgarishlarning korreksiyalashga xizmat qiladigan manbalar	918
F. A. Choriyeva	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida chet tilida lug'at boyligini oshirishning samarali usullari	921
G'ulomjonova Mubdi'ma G'ayratjon qizi	
Kitobxon badiiy adabiyotni qanday anglaydi	924
Hamdamova Dilshoda Rustamjon qizi	
Zamonaviy ta'limda talabalarda ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirishning pedagogik asoslari	928
Ibragimova Dilnoza Rashid qizi	
The Pedagogical Role of the Community in Promoting Abilities of Students	931
Isabayeva Dilduza Komiljonovna	
Ta'lim sifatini oliy ta'lim tashkilotlarida yaxshilashda til bilishning o'rni	934
Isaqulova Baxtigul Xo'jamovna	
Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishda ingliz tili darslarida interaktiv media vositalarining ta'siri	938
Ismoilova Zarifa Abduqaxxorovna	
O'quvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishda xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish metodikasi	942
Jabborova Shahodat Ibrohim qizi	
Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida deontologik qadriyatlar va professional etikani rivojlantirish	945
Kalandarova Fazilat Toxirovna	
Voleybolda maxsus chidamlilikni rivojlantirishning umumiy tushunchalari	948
Karimova Gulhayo Botirjon qizi	
The Portrait of the Image of Manfred in the Translation of J.G. Byron's Poem "Manfred"	953
Kurbonov Parda Akhmedovich	
Suv aralashmasi temperaturasi aniqlash	958
Mamatova Go'zaloy Jo'ramirzayevna, Mashrabboyeva Mubina Bobomurod qizi, Abdurahmonova Gulasal Avazbek qizi	
Yosh bokschilarning texnik-taktik harakatlarini takomillashtirish yo'llari	961
Mamatqulov Xusanboy Baxtiyor o'g'li	
Maktab direktorlarini qo'llab-quvvatlashda asosiy ustun amaliyotlar va O'zbekiston ta'lim tizimida ularni qo'llash imkoniyatlari	965
Mamura Tadjibayeva	
Adabiy ta'limda scamper metodining qo'llanilishi	969
Marjona Toshpulatova	
Maktabgacha ta'limda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda matematika va savod asoslarining didaktik yechimlari	974
Mingboyeva Guldorxon Maxmudovna	
Umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'limni joriy etishning dolzarb muammolari va mavjud imkoniyatlari ..	977
Mo'minova Qunduz Xolmamat qizi	
"Jasper Jones" as New Life Given to The Novel "To Kill a Mockingbird"	982
Nargiza Akhrorova	

Sun'iy intellekt asosida matematik masalalarni yechish algoritmlari	985
<i>Oqnazarov To'liqin Jalilovich, Jo'rayev Mardon</i>	
Matematika darslarida kombinatorika elementlari va mantiqiy masalalar yechishga o'rgatish metodikasi ..	990
<i>Panjiyeva Shahlo Zulfikar qizi</i>	
Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilari lisoniy-muloqot kompetentligini rivojlantirishga qo'yiladigan didaktik talablar.....	993
<i>Raximova Charosxon Baxromjon qizi</i>	
Kurash texnikasi va taktikasini bolalarga o'rgatish yo'llari	996
<i>Raxmonov Dilmurod Nusratovich</i>	
Pedagogical Technologies in Modern Education: Trends and Applications.....	999
<i>Salimova Bakhora Khurbanovna</i>	
Global ta'lim makonida milliy tarbiyani rivojlantirish istiqbollari.....	1003
<i>Sanaqulov Sardor Istamqulovich</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida so'z turkumlari mavzusini o'rgatishda qiziqarli o'yinlardan foydalanish.....	1006
<i>Shomurotova Sevinchoy San'at qizi</i>	
Kredit-modul tizimida texnologik fanlar o'qituvchilarini tayyorlashda raqamli avtomatlashtirilgan o'quv modullari yaratish imkoniyatlari	1009
<i>Turdikulova Sevara Abdumominovna</i>	
Tyutorlik faoliyatining zamonaviy ta'lim tizimidagi ahamiyati va murabbiylik an'analarning uzviyligi	1012
<i>Ubaydullayev Zuxriddin Botirovich</i>	
O'zbekistonda til ta'limida innovatsiyalar: sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar yondashuvi	1016
<i>Umarova Iroda Shavkatjon qizi</i>	
Pedagogical Situation of Developing Students' Critical Thinking	1020
<i>Usmonova Oydin Sherali kizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida pedagogik texnikani rivojlantirishning didaktik omillari	1024
<i>Xolmo'minova Bahora Abduljalolovna</i>	
Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining ijodiy kompetensiyasini rivojlantirishga qo'yiladigan didaktik tamoyillar ..	1027
<i>Xurshidjon Raximov Xursandjon o'g'li</i>	
O'zbekistonda steam ta'lim tizimini tatbiq etishning nazariy aspektlari	1031
<i>Yaxshiboyeva Sitara Toshpulat qizi</i>	
Oliy ta'limda talabalar ijodiy salohiyatini shakllantirishda pedagogik innovatsiyalarning o'rni va imkoniyatlari	1034
<i>Yuldashev Abdurauf Ro'zmatjonovich</i>	
Talabalarda nutqiy faoliyatni rivojlantirishga doir olib borilayotgan ishlarning joriy holati	1037
<i>Yusufova Gulhayo Nosirxon qizi</i>	
Ingliz tili fanini o'qitishda (PBL) loyiha va muammoga asoslangan metodika: O'zbekiston tajribasi va xalqaro amaliyot	1040
<i>Zarina Tasheva Djumayevna</i>	
Актуальные проблемы изучения русского языка	1043
<i>Абдуллаева Нигора Курбановна</i>	
Применение цифровых средств обучения в курсе "Окружающий мир" для изучения народной экологии в начальной школе	1046
<i>Бобаева Зиёдахон Махамаджон кизи</i>	
Tasviriy san'at darslarini o'qitishga innovatsion yondashuv.....	1049
<i>N. P. Kaipov</i>	
Важность разработки стратегических программ развития страны.....	1052
<i>Каримова Нуржохон Олим кизи</i>	
Pedagog kadrlar kasbiy kompetentligi diagnostikasining kvalimetrik texnologiyalari	1056
<i>Mirsoliyeva Muhabbatxon To'xtasinovna</i>	
Анализ элективных курсов по информатике в зарубежных странах и их аналогов в системе образования Узбекистана	1060
<i>Урынбаева Азада Бахадировна</i>	
Multimedia texnologiyalarining ta'lim tizimiga integratsiyasi.....	1064
<i>Raximova Dilfuza Abduraxmonovna</i>	

PIRLS XALQARO TADQIQOTIDA MATN, TOPSHIRIQLAR VA BAHOLASH MEZONLARI

Amonova Aziza Saydulloyevna

Navoiy davlat universiteti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim)
mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada PIRLS xalqaro baholash dasturining maqsad va vazifalari yoritilgan. PIRLS tadqiqotida matn hamda topshiriqlarning o'ziga xos talablari, ayniqsa 4-sinf o'quvchilari uchun mos bo'lishi inobatga olingan. PIRLS dasturining to'rtta tushunish jarayoni haqida ham fikr-mulohazalar bildirilgan. Shuningdek, PIRLS dasturining baholash mezonlari batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: matn, o'qish savodxonligi, tushunish jarayoni, baholash, badiiy tajriba, axborot.

Abstract: This article presents the objectives and tasks of the PIRLS international assessment program. The specific requirements for texts and assignments in the PIRLS study are considered, ensuring their appropriateness for fourth-grade students. The article also discusses the four comprehension processes of the PIRLS program and provides detailed information about its evaluation criteria.

Key words: text, reading literacy, comprehension process, assessment, artistic experience, information.

Аннотация: В данной статье представлены цели и задачи международной программы оценки PIRLS. Рассмотрены специфические требования к текстам и заданиям в исследовании PIRLS с учетом их соответствия для учащихся 4-х классов. Также рассмотрены четыре процесса понимания в программе PIRLS и подробно изложены критерии оценки.

Ключевые слова: текст, читательская грамотность, процесс понимания, оценка, художественный опыт, информация.

KIRISH

PIRLS xalqaro tadqiqoti – boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini qay darajada rivojlanganligini aniqlaydigan, xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish-o'qitishni yaxshilashda ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga xizmat qilishi mumkin bo'lgan bir qator tahlillarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturi hisoblanadi. Hozirgi vaqtda PIRLS ta'rifi ko'ra, o'qish savodxonligi – jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati hisoblanadi. Tadqiqot doirasida asosiy e'tibor tushunishni namoyon qilishdan o'zlashtirilgan ma'lumotlarni qanday qilib yangi loyihalar va vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

PIRLS tadqiqotida ishlatiladigan matnlar uchun quyidagi mezonlar belgilangan: matn uzunligi – 1 000 ta so'zgacha, ammo o'qish savodxonligi darajasi past bo'lgan mamlakatlar uchun 400–500 ta so'z belgilangan.

Mavzu:

1. Adabiy matnlar asosiy mavzuga ega bo'lib, u berilgan matndan tashqari o'quvchi tomonidan umumlashtiriladi.
2. Axborotdan iborat bo'lgan matnlar o'quv materiallaridan olinmagan mavzuni yoritib berishi kerak.

Tadqiqotda foydalaniladigan matnlar 40 dan ortiq tillarga tarjima qilinadi, shuning uchun tarjima qulay bo'lishi muhimdir. Metafora yoki epitet kabi aniq ifodali tasvirlash vositalari tanlanadi. Hech qanday so'zlashuvga oid leksika yoki jargon ishlatilmaydi. Haddan ziyod texnik vositalar ishlatilmaydi. Syujetning mantiqiy tuzilishiga rioya qilish mazmuni bo'yicha matnning mohiyati 9–10 yoshdagi o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos kelishi kerak ^[1].



Ayrim madaniyatlarga juda xos bo'lgan mavzulardan chetlanish tadqiqotning asosiy talablaridandir. Matn shu yoshdagi maktab o'quvchilari uchun qiziqarli va zavqli bo'lishi hamda yaxshi yozilgan va unchalik tanish bo'lmagan mavzuni yoritishi lozim. Matnda oddiy va murakkab gaplarning teng qo'llanishi ta'minlanadi. Agar dialog ustunlik qilsa, ma'lumotni birlashtirib, murakkab gaplar kiritilishi kerak. Axborot matnida esa matn tuzilishi va ma'lumotlarning mantiqiy ketma-ketligini sarlavhalar, jadvallar, grafiklar kabi vizual elementlar bilan bog'liqligini kuzatish talab etiladi.

O'quvchi bu jarayonning faol qatnashuvchisi bo'lib, unda ishtiroki davomida matndan yangi ma'no yaratadi, matn ustida mushohada yuritadi va samarali o'qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab qo'llaydi. Har bir matn turi odatiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda o'quvchiga matnni sharhlashga yordam beradi. Har qanday matn turli shaklga ega bo'lishi mumkin. Bular an'anaviy kitoblar, jurnallar, hujjatlar va gazetalar, shuningdek, raqamli ko'rinishdagi yozma shakllarni ham o'z ichiga oladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bu dastur asosida olib borilayotgan jarayonlar bevosita fanlar bilan va fanlararo bog'liqlik tarzda olib borilishi lozim. Jumladan, PIRLS boshlang'ich sinf o'quvchilarining sinf va sinfdan tashqari o'qishini baholashda ikki keng qamrovli maqsadga qaratiladi, ya'ni "badiiy tajriba orttirish" va "axborotni olish hamda undan foydalanish". Ushbu maqsadlarning har biri to'rtta keng tushunish jarayonini birlashtiradi:

- diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish;
- to'g'ridan to'g'ri xulosalar chiqarish;
- kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish;
- g'oyalar va axborotni talqin qilish va uyg'unlashtirish ^[1].

Shuningdek, PIRLS yosh o'quvchilar tomonidan maktabda va maktabdan tashqarida ta'lim olishning katta qismini tashkil etuvchi badiiy tajriba orttirish va ma'lumot olish ko'nikmalarini baholashga yo'naltirilgan. Dastur zamon bilan hamnafas rivojlanib, o'zining baholash mezonlarini zamonaviy talablarga moslashtirib boradi. Masalan, 2021-yilda o'tkazilgan tadqiqotda o'quvchilarga birinchi marta raqamli formatdagi topshiriqlar taqdim etildi. Raqamli formatga o'tish bilan birga, internet muhitida boshqariladigan ePIRLS onlayn o'qishni kompyuterda baholash tizimi ham joriy etildi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matnni o'qish va tushunish malakasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O'quvchilar 1-sinfdan boshlab matnni o'qish va tushunishga o'rgatiladi. Ularni xalqaro baholash darajasini belgilovchi PIRLSga tayyorlash uchun boshlang'ich sinf darsliklari va internetdan yoshga mos hikoya, ertak, she'r va axborot matnlaridan foydalaniladi.

O'qish darslarida hamda darsdan tashqari mashg'ulotlarda matnni ifodali o'qish, mazmunini tushunish, izohlash, tahlil qilish, xulosa chiqarish, baholash va matn qurilishi bo'yicha savollarga javob bera olish ko'nikmalari shakllantiriladi. Ayrim matnlar uyga vazifa sifatida ham berilishi mumkin. Keyingi dars mashg'ulotlarida esa savol-javob va tahlillar o'tkaziladi.

Tadqiqot uchun tanlanadigan matnlar bayonning ravonligi va izchilligi, realligi, faktlarni tahlil qilmay tavsiflash darajasi, badiiylilik (badiiy publitsistik va boshqa matnlar) kabi mezonlar asosida saralanadi. PIRLS xalqaro dasturi har besh yilda amalga oshiriladi. Unda boshlang'ich sinf bitiruvchilari ikkita matn bo'yicha baholanadi:

- birinchisi – san'at va madaniyatga oid, tarixiy voqeaga asoslangan hikoya yoki ertak;
- ikkinchisi esa – aniq ilmiy ma'lumotlarga asoslangan bo'lishi kerak ^[2].

PIRLSda berilgan har bir matnga alohida mashq daftarlari ishlab chiqilgan. Ushbu ish daftarlari o'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirish, o'qiganlarini tahlil qilish, talqin qilish va to'g'ri xulosa chiqara olish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun qo'shimcha material hisoblanadi.

PIRLS tadqiqotining maqsadi – dunyoning turli mamlakatlaridan kelgan to'rtinchi sinf o'quvchilari tomonidan matnni tushunish darajasini taqqoslash, shuningdek, milliy ta'lim tizimlaridagi o'qish savodxonligi farqlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqotning xalqaro lug'atiga ko'ra, "o'quvchi savodxonligi" – bu insonning hayotda o'zini to'liq namoyon qilishi va o'z maqsadlariga erishish uchun zarur bo'lgan turli yozma tillarni tushunish va mantiqiy anglash qobiliyatidir.

TAHLIL VA NATIJALAR

PIRLS tadqiqotlari quyidagi muammolarni hal qilishga qaratilgan:

- ta'lim sohasidagi dunyo ustuvorliklarini aks ettiruvchi obyektiv o'lchovlar va vositalarni ishlab chiqish;
- mamlakat o'quv jarayonini tashkil etish samaradorligini qiyosiy baholash;
- tadqiqot natijalariga ta'sir ko'rsatgan kontekstual omillarni aniqlash;
- xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olingan dalillarga asoslangan ma'lumotlarga ega bo'lish.



Tadqiqot obyekti boshlang'ich maktab bitiruvchilarining o'quv yutuqlari hisoblanadi, chunki bu to'rtinchi o'quv yilida o'qitish bo'yicha barcha bilim va ko'nikmalar to'planadi. Shu yoshda o'quvchilar o'qishni yaxshi o'zlashtirishi kerak, shunda ular asosiy maktabda o'qishni muvaffaqiyatli davom ettirish uchun tarkibiy va formatdagi turli xil matnlardan foydalanadilar.

PIRLS Xalqaro markazning rejasiga muvofiq, tadqiqot har bir mintaqada Milliy muvofiqlashtiruvchi mintaqaviy ta'lim boshqarmasi bilan hamkorlikda mintaqaviy muvofiqlashtiruvchi markaz tomonidan tashkil etiladi va o'tkaziladi. Shunga ko'ra, tadqiqot uchun tanlangan har bir maktabda maktab muvofiqlashtiruvchisi tayinlanadi. Sinovni o'tkazadigan shaxs sinovdan o'tadigan sinfda va maktabda dars bermaydigan tajribali professional o'qituvchilar orasidan tanlanadi.

Sinov jarayonida xalqaro kuzatuvchilar tanlangan maktablarga bo'linadi. Ular Akademik ish faoliyatini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (XEA) tomonidan ishtirokchi mamlakatning ta'lim sohasidagi mustaqil mutaxassislar orasidan tayinlanadi (ular xalqaro va nodavlat tashkilotlari vakillari bo'lishi mumkin). O'zbekistondagi tayinlangan kuzatuvchidan o'zbek, rus va ingliz tillarida gaplashish talab etiladi. Ishlab chiqilgan maxsus talablarga muvofiq, xalqaro kuzatuvchi shaxsan ishtirok etish uchun ma'lum miqdordagi maktablarni tanlaydi. Bu o'rganish natijalarining obyektivligini ta'minlaydi.

PIRLSda baholash mezonlari. PIRLS–2021 xalqaro tadqiqoti qog'oz shaklidan raqamli shaklga o'ta boshladi. Ishtirokchi mamlakatlarning qariyb yarmi tadqiqotning raqamli shaklidan, qolgan yarmi esa an'anaviy qog'oz shaklidan foydalandi. Har ikkala baholash shakllari o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash maqsadida raqamli va qog'oz shaklidagi PIRLS dasturlarida o'qib tushunishga oid beriladigan matnlar va savollarning bir xil bo'lishiga e'tibor qaratildi. Biroq ePIRLS tadqiqotida qog'oz shakldagi baholash jarayonida qo'llab bo'lmaydigan imkoniyatlar va topshiriqlar mavjud.

PIRLS tadqiqotlarida darsda o'quvchilar tomonidan eng ko'p qo'llaniladigan o'qishning quyidagi ikki turi o'rganiladi:

1. Adabiy kitobxonlik malakasini egallash maqsadidagi o'qish;
2. Mazmunni tushunish va amalda foydalanish maqsadidagi o'qish.

O'quvchilarga ikki xil topshiriq beriladi:

1. Adabiy o'qish tajribasini o'rganish;
2. Axborotni ishlab chiqish va undan foydalanish ^[4].

O'qish savodxonligining asosi matnlar bilan to'liq ishlash uchun zarur bo'lgan o'qish qobiliyatlarini shakllantirishdan iborat. Bu – o'quvchi tomonidan kerakli ma'lumotlarni topish va izohlash, matnning ma'lum qismi bo'yicha xulosalar chiqarish, asosiy belgilarning harakatlarini sharhlash, matn namunalari va tuzilishini dastlabki tahlil qilish orqali amalga oshiriladi.

PIRLS o'rganish monitoringi bo'lganligi sababli, o'qish sifati dinamikasini o'rganish ham uning asosiy vazifalaridan biridir. Shu bois, o'qish uchun zarur shart – bu har bir qismda matnlar va ularga berilgan topshiriqlarning ma'lum qismini qayta ishlatishdir.

Tadqiqot ishtirokchilarining o'quv va o'qishdagi yutuqlarini baholash o'quvchilarning o'qish ko'nikmalarining muayyan darajalariga asoslangan holda, maktab ta'limi sifatini baholash bo'yicha xalqaro ekspertlar ko'rsatmalariga muvofiq amalga oshiriladi. Ushbu darajalar taklif qilingan matnlar bilan ishlashda turli murakkablik darajasiga ega o'quvchilarning faoliyatini tavsiflaydi. Aniq darajadagi mezonlar yordamida bolalarning natijalarini statistik jihatdan alohida guruhlariga ajratish, ularning tayyorgarligini esa ma'lum darajadagi vazifalar yordamida tasvirlash imkoniyati yaratiladi. Bajirilgan ishlar sifatli va miqdoriy baholash tizimi asosida baholanadi.

PIRLSda baholash 1 000 ballik shkala bo'yicha amalga oshiriladi (asosan davlatlar natijalari 300 dan 700 ballgacha). O'rtacha qiymat – 500 ball, standart og'ish – 100 ball. Har bir topshiriq uchun uning murakkabligiga qarab muayyan ball beriladi. Xalqaro ekspertlar o'qish savodxonligini badiiy va axborotli matnlarni o'qish sifati va o'qish qobiliyatining individual guruhlarini baholash mezonlari asosida tahlil qiladilar.

PIRLS tadqiqotlarida xalqaro miqyosda quyidagi to'rtta daraja belgilangan:

1. Eng yuqori daraja – 625 ball;
2. Yuqori daraja – 550 ball;
3. O'rtacha daraja – 475 ball;
4. Past daraja – 400 ball ^[5].

Mana shu darajalar asosida o'quvchilarning o'qish savodxonligi baholanadi. Ularning fikrlash qobiliyati, mantiqiy tafakkuri, ijodkorlik salohiyati, mustaqil fikrlash ko'nikmasi va matnni to'g'ri tushunib o'qish qobiliyati alohida ahamiyatga ega hisoblanadi.

Biz bilamizki, to'rtta o'qib tushunish jarayonlari mavjud: tez o'qish, ongli o'qish va ifodali o'qish. O'qish savodxonligini baholashda aynan shu tushunish jarayonlari asosida o'quvchining salohiyati aniqlanadi.

Bundan tashqari, dastur doirasida baholash daftarlari ham ishlab chiqiladi. Moslashtirilgan baholash tartibi yuqori o'zlashtirish ko'rsatkichiga ega mamlakatlarda murakkab baholash daftarlarini, past ko'rsatkichga ega mamlakatlarda esa osonroq baholash daftarlarini tarqatish orqali ishtirokchi mamlakatlar o'quvchilari qobili-



yati va savollarning murakkablik darajasi o'rtasidagi tafovutni muvofiqlashtiradi. Yangicha baholash tartibi vaqt me'yorlari va mavjud tartiblarga imkon qadar kam o'zgartirish kiritgan holda, natijalarda ko'proq ma'lumot olish imkonini beradi. Guruhlarga ajratilgan baholash tartibi savollar murakkabligi va mamlakatdagi o'quvchilarning qobiliyati o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash uchun ishlab chiqilgan bo'lsa-da, agar mamlakat ichida o'quvchilar o'zlashtirish ko'rsatkichida sezilarli tafovut aniqlansa, ushbu tartib mamlakat ichida ham qo'llanishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Turli mamlakatlarda o'tkazilgan PIRLS tadqiqotining natijalari pedagogik hamjamiyat tomonidan keng muhokama qilinmoqda. Maktab o'quvchilari yutuqlari natijalarini monitoring qilish mexanizmlari joriy etilmoqda, o'quv texnologiyalari va boshlang'ich maktab o'quvchilarining o'quv yutuqlariga qo'yiladigan talablar ko'rib chiqilmoqda.

Xalqaro test topshiriqlari asosida maktab o'quvchilari, pedagogik jamoalar va innovatsion o'qituvchilarning savodxonligini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar nafaqat o'quvchilarning ilmiy yutuqlarini baholashga, balki birinchi navbatda o'qish madaniyati va ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Bu esa mamlakatdagi yoshlarning bilim olish jarayonida muhim omil hisoblanadi.

PIRLS dasturining o'qish savodxonligi yo'nalishi bo'yicha respublikamizning har bir viloyatida ishlar olib borilmoqda. O'qish savodxonligi bo'yicha yuqori darajada matnlar va topshiriqlar tayyorlanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash (Boshlang'ich sinf o'qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma). Ta'lim inspeksiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. Toshkent, 2019-yil, 92 bet.
2. Ismoilov A. va boshq. Toshkent: "Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo'limi", 2021-yil. – 140 bet.
3. Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning matematik savodxonligini baholash" metodik qo'llanma. Toshkent, 2019-yil.
4. P., & Yin, L. (2017). Scaling the PIRLS 2016 Achievement Data. In M. O. Martin, I. V. S. Mullis, & M. Hooper (Eds.), *Methods and Procedures in PIRLS 2016* (pp. 12.1–12.38). Retrieved from Boston College, TIMSS & PIRLS International Study Center website: <https://timssandpirls.bc.edu/publications/pirls/2016-methods/chapter-12.html>
5. Qorayev S.B., Allayorova S.B. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini PIRLS xalqaro baholash dasturi tizimiga tayyorlash jarayonini takomillashtirish masalalari. *Academic Research in Educational Sciences Volume 2 | Issue 2 | 2021*. ISSN: 2181-1385. Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 / DOI: 10.24411/2181-1385-2021-00217. 443–448-bet.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.